

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

ARIPOV ALISHER SAYFIDDINOVICH

ZAMONAVIY JAMIYATDA KORRUPSIYA PROFILAKTIKASINING
IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

09.00.04 - Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Aripov Alisher Sayfiddinovich

Zamonaviy jamiyatda korrupsiya profilaktikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili3

Арипов Алишер Сайфиддинович

Социально-философский анализ предотвращения коррупции
в современном обществе23

Aripov Alisher Sayfiddinovich

A socio-philosophical analysis of the prevention of corruption in
modern society45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ.
List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

ARIPOV ALISHER SAYFIDDINOVICH

ZAMONAVIY JAMIYATDA KORRUPSIYA PROFILAKTIKASINING
IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

09.00.04 - Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fal1050 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salomova Hakima Yusupovna
falsafa fanlari doktori, professor

Tuychiyev Berdiquil Turaqulovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "16" Urt soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (937 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "02" iyul kuni tarqatildi.

(2026-yil "02" iyul dagi 20 raqamli reyestr bayonnomasi.)



B.B. Namozov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

F.D. Muzaffarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon taraqqiyotida boshqaruv tizimlarining murakkablashuvi, iqtisodiy munosabatlarning transmilliy tus olishi hamda ijtimoiy institutlar faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikka bo'lgan talabning ortishi korrupsiya muammosini zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotiga tahdid soluvchi dolzarb ijtimoiy hodisalardan biriga aylantirmoqda. Korrupsiyaning turli ko'rinishlari va uning jiddiy oqibatlariga qarshi barcha davlatlarda turli modellar, davlat dasturlari doirasida tizimli yechimlar taklif etilmoqda hamda profilaktika mexanizmlarining zamonaviy uslubini, innovatsion modellarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy jamiyatda korrupsiyani ijtimoiy adolat, tenglik, qonuniylik, ishonch, ma'naviy-axloqiy mas'uliyat va fuqarolik madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida tadqiq etish, uning profilaktikasini shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida sog'lom ma'naviy muhit, ijtimoiy nazorat, adolat tuyg'usi, huquqiy madaniyat va antikorrupsion tafakkurni shakllantirish orqali amalga oshirish mexanizmlarini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida interdissiplinar yo'nalishda korrupsiyaga qarshi kurashishda profilaktika mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-metodologik yondashuvlar, pragmatik yechimlar, xususan, korrupsiya profilaktikasining aksiologik, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy va institutsional asoslarini tizimli tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Korrupsiya profilaktikasi shaxsning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyati, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy manfaatlariga munosabati bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning oldini olish masalasi ijtimoiy ong, axloqiy tanlov, qadriyatlar transformatsiyasi, ijtimoiy devyatsiya, jamoatchilik nazorati va institutsional ishonchni shakllantirishni talab etadi. Shuning uchun korrupsiya profilaktikasini konfliktologiya va noxiziq harakat paradigmalari doirasida tadqiq etish, axloqiy me'yorlar, ma'naviy immunitet, ijtimoiy adolatga ishonch va fuqarolik daxldorligi orqali bartaraf etilish xususiyatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyasiz faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan "korrupsiyasiz soha" loyihalari izchil joriy etilmoqda, ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash, shuningdek, fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. "Dunyoda barqaror taraqqiyotga rahna solib, aholining davlatga nisbatan ishonchini yemiradigan bir illat borki, bu – korrupsiya balosidir. Chindan ham, korrupsiya butun insoniyatga zarar keltirib, barcha jamiyatlarning asosiga putur yetkazadigan, qonun ustuvorligini buzadigan, demokratik institutlar rivojiga to'sqinlik qiladigan jiddiy xatardir. Afsuski, korrupsiya balosi bizning jamiyatimizda ham davom etib kelayotganligini inkor qilib bo'lmaydi"¹. Shu bois korrupsiyaning milliy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini ochib berish hamda yoshlarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish, antikorrupsion madaniyatni yuksaltirish va profilaktik faoliyatning mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: "О'zbekiston", 2024. -Б.452

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", 2024-yil 5-iyundagi O'RQ-931-son "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2025-yil 30-dekabrda PF-270-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2025-yil 19-sentyabrda PQ-288-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari hamda hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korrupsiya muammosi va uni profilaktikasi masalasi davlat rahbari asarlarida nazariy va metodologik jihatdan keng yoritilgan².

Xorijlik tadqiqotchilardan Dawn Merdelin Johnson, Luís Sousa, Alina Mungiu-Pippidi, Avinash Dixit, Ronald Kroeze, Francisco Cordona, John R. Heilbrunn, Isabel Gallego-Álvarez, Ana Belén Nieto-Librero, Eugenio Martín-Gallego

² Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: "Ўзбекистон", 2016. –Б.47.; Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2018. –Б.508.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. –Т.: "O'zbekiston", 2023. –Б.536; Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. –Toshkent: "O'zbekiston", 2024. –Б.12.

korruptsiyaga qarshi kurashuvchi institutsional tizimlar, ularni takomillashtirishning turli jihatlarini tadqiq etishgan³.

MDH davlatlari olimlari Y.Y. Antonova, Y.V.Yepifanov, V.I.Dobrenkoye, Y.I.Kuzminov, I.Y.Bogdanov, N.A.Axmetovalar, I.A.Damm, A.N.Tarbagayev, N.P.Koptseva, Y.A.Akunchenko, A.Y.Dyachenko tomonidan korruptsiya profilaktikasi masalalari ijtimoiy ahamiyat kasb etgan muhim omil sifatida tadqiq etilgan⁴.

Mavzu doirasidagi korruptsiyaga qarshi kurashning ma'naviy asoslarini tadqiq etishda F.R.Abdurahmonov, J.B.Bahronov, M.B.Bekmurodov, N.A.Nazarov, T.Mahmudov, R.R.Rahmonov va Z.G'afurov tadqiqotlaridagi o'zbek xalqining mentalitetining ma'naviy asoslari, millatimizdagi jamoaviylikning insonparvarlik xususiyati masalalari hamda B.To'ychiev, H.Salomova, A.Sharipov, I.Saifnazarov, I.Ergashev, A.Erkayev va N.Sa'dullayevlarning ma'naviy barkamollik, shaxs axloqiy qiyofasi, inson kamolotining ijtimoiy omillari kabi konsepsiyalari muhim nazariy va metodologik ahamiyat kasb etdi. Korruptsiya va uning destruktiv xususiyatlari B.D.Axrarov, X.Azizov, X.Xayitov, A.Yo'ldoshev tadqiqotlarida nazariy jihatdan tahlil etilgan⁵.

³ Johnson D. M. Voters' Perception of Public Corruption and Low Voter Turnout: A Qualitative Case Study of Cook County. Dissertation Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy in Public Policy and Administration. Minneapolis: Walden University, 2024. –P. 150.; Sousa L. Anti-corruption agencies: between empowerment and irrelevance. Crime, Law and Social Change, Springer Verlag, 2009–P.90.; Mungiu-Pippidi A., Seven Steps to Control of Corruption: The Road Map, Daedalus, 2018.–C.43., Dixit A., Anti-Corruption Institutions: Some History and Theory, in K. Basu, T. Cordella (ed), Institutions, Governance and the Control of Corruption. Springer, 2018.–P.123., Ronald Kroeze, et al, Anticorruption in History: From Antiquity to the Modern Era. Oxford University Press, 2018.–P.109., Francisco Cordona, Anti-corruption policies and agencies. Centre for Integrity in the Defense Sector, Guides to Good Governance, No.3, 2015.–P.57., Heilbrunn John R., Anticorruption Commissions: Panacea or Real Medicine to Fight Corruption. World Bank Institute, 2004–P.73.; Gallego-Álvarez I., Nieto-Librero Ana Belén, Martín-Gallego E. Sustainable Development Goals and Corruption: An International Situation Analysis Through the Application of a Three-Way Multivariate Analysis. // Sustainability. Vol.17, –P.76.

⁴ Антонова Е.Ю. Уголовная ответственность юридических лиц: монография / под ред. проф. А.И. Коробеева. Владивосток, 2010. –С. 164.; Епифанов Е.В. Юридическое лицо как субъект преступления //Современное право. 2003. №2. –С. 45.; Добренское В.И., Исправникова Н.Р. Коррупция: современные подходы к исследованию. –М.: 2009.–С.89.; Кузьминов Я.И. Механизмы коррупции и их особенное проявление в государственном аппарате. Административное право: теория и практика. М.: 2002.–С.69.; Богданов И.Я., Калинин А.П. Коррупция в России: социально-экономические и правовые аспекты. –М. 2001.–С.45; Ахметова Н. А. Социальный механизм воспроизводства коррупции в условиях современного российского общества: монография. – Волгоград. 2008; Дамм И. А., Тарбагаев А. Н., Копцева Н. П., Акунченко Е. А., Дьяченко А. Е. Стимулы и ограничения в системе обеспечения антикоррупционной безопасности (обзор VII Сибирского антикоррупционного форума) // Russian Journal of Economics and Law. –Kazan, Том 18, Изд. 2, 2024.– С.535-553.

⁵ Абдурахмонов Ф. Р. Мустақиллик ва миллий манфаатлар. –Т.: Фан, 1994.–Б.78.; Бахронов Ж. Шахс миллий ўзлигини англаши қонуниятлари. –Самарқанд: Зарафшон, 1995.–Б.90.; Бекмуродов М.Б. Ўзбек менталитети: жамоавийлик ва индивидуаллик нисбати. Хуррият.– Т, 2002.–Б.89.; Назаров Н. Мустақиллик шароитида этноижтимоий жараёнлар. –Т.: Ижтимоий фикр, 2005.–Б.95.; Раҳмонов Р., Ғафуров З. Мустақиллик ва миллий ўзлиқни англашнинг тикланиши. –Т.: Ўзбекистон, 1999.–Б.56. Саифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маънавият. –Т.: Шарқ, 2001.–С.43.; Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси. –Т.: Академия, 2000.–С.102.; Эркаев А. Маънавият — миллий нишони. –Т.: Маънавият, 1997.–С.62.; шу муаллифники: Миллий ғоя ва маънавият. –Т.: Маънавият, 2002.–С.87.; Хўжамурадов И., Саъдуллаев Н. Маънавий баркамоллик-зийнатдир. Т.: Мехнат, 2001.–С.95. Ахраров Б.Д., Бошқарув тартибига қарши мансабдорлик жиноятлари учун жавобгарлик муаммолари. ю.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. –Т.: ТДЮУ, 2008. –Б. 145.; Азизов Х., Хайитов, Х., Йўлдошев А. Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қарорларини тайёрлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари. –Тошкент: ДБА, 2019. –Б.100.; Бурханов А., Маманов С. Коррупцияга қарши ички назорат (комплаенс) тизимини жорий этиш бўйича қўлланма. –Тошкент: Baktria press, 2021 –Б.60.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaning ijtimoiy oqibatlarini, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ta'siri, ta'lim tizimidagi namoyon bo'lishi, ma'naviy-ma'rifiy omillari va huquqiy mexanizmlari muayyan darajada o'rganilganini ko'rsatadi. Biroq zamonaviy jamiyatda korrupsiya profilaktikasining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy faoliyatdagi profilaktik muammolar va ularni hal etish usullari yaxlit tizim sifatida tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur dissertatsiyada korrupsiya profilaktikasining ijtimoiy ong, axloqiy madaniyat, institutsional ishonch, fuqarolik mas'uliyati, jamoatchilik nazorati va antikorrupsion madaniyatni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati" (2022-2026-yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamiyatda korrupsiya profilaktikasi tizimida zamonaviy profilaktika usullari va vositalarining ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy jamiyatda korrupsiya profilaktikasining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini, global mazmuni hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etish;

korrupsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o'rganish, bu sohaga oid yondashuvlarni tahlil qilish va bu illatni yengishning ijtimoiy zarurati va huquqiy asoslarini ochib berish;

korrupsiya profilaktikasi bilan bog'liq ijtimoiy muammolar va ziddiyatlarni tahlil qilish asosida bu tizimni takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning ijtimoiy aspektlarini aniqlash;

korrupsiya jarayonida yuzaga keladigan beqarorlik va uni bartaraf etishda ta'lim va madaniyatning jamiyatda adolat, halollik, qonuniylik, ochiqlik va mas'uliyat kabi qadriyatlarni mustahkamlashdagi o'rnini, o'zaro aloqadorligini asoslab berish;

korrupsiyaga qarshi profilaktika tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan modellarning namoyon bo'lish shakllari va mezonlarini tahlil qilish;

Yangi O'zbekistonda korrupsiya profilaktikasining global mohiyati, milliy taraqqiyot strategiyasi va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonlari bilan aloqadorligini ochib berish;

zamonaviy jamiyatda korrupsiya profilaktikasini takomillashtirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy jamiyatda korrupsiya va uning profilaktikasi bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini korrupsiya profilaktikasining ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-axloqiy xususiyatlari hamda zamonaviy jamiyatda korrupsiyaning oldini olish mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli-funksional tahlil, kontent-analiz, retrospektiv, dialektik, sinergetik, komparativistika kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

korruptsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o'rganish asosida, bu illatni yengishning ijtimoiy zarurati va huquqiy asoslarini globallashtirish va raqamlashtirish talablariga javob beruvchi tizimni yaratish orqali xalqaro konvensiyalar doirasida yagona mexanizmni joriy etish lozimligi aniqlangan;

jamiyatda korruptsiyaga qarshi profilaktika tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, uning funksiyalarini kengaytirish, shuningdek, huquqiy vakolat va majburiyatlarni aniq belgilash va nazariy — ilmiy yondashuvlar asosida SI tizimi yordamida me'yoriy talablar hamda normativ hujjatlar tizimini va sohaga taalluqli kontentlarni yanada takomillashtirish lozimligi dalillangan;

korruptsiya norasmiy ijtimoiy aloqalar darajasida yuzaga keladigan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi va uni bartaraf etishda ta'lim va madaniyat, ommaviy axborot vositalari, mafkura kabi targ'ibot tizimini dialektik aloqadorligi asosida korruptsiyani profilaktikasining ijtimoiy va aksiologik ahamiyati ochib berilgan;

korruptsiyaga qarshi profilaktika tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan tamoyillarni ishlab chiqish hamda ularni amaliy faoliyatga samarali joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan profilaktik modellarni tatbiq etishning ijtimoiy va madaniy jihatdan ahamiyati hamda zarurati, jamiyatning barqarorligini mustahkamlash, davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirishda sinergetik yondashuv muhimligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

me'yoriy talablar va mezonlarning normativ hujjatlar orqali tizimli tartibga solinishi zarurati, huquqiy vakolat va majburiyatlarni aniqlash jarayonida huquqiy asoslarni takomillashtirish, samarali mexanizmni joriy etish kabi indikatorlari va resurslarni muvofiqlashtirishda muhim vosita ekanligi ochib berilgan;

profilaktika tizimi faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish, funksional vazifalarni kengaytirishda ta'lim va madaniyat, ommaviy axborot vositalari, mafkura va targ'ibot tizimini faollashtirish va tizimli aloqadorlikda olib borish muhimligi asoslab berilgan;

zamonaviy jamiyatda korruptsiya profilaktikasini samarali tashkil etishda antikorrupsion madaniyat, jamoatchilik nazorati, ochiqlik, shaffoflik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish hamda ta'lim muassasalari, oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish zarurati aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy madaniyatini rivojlantirish hamda huquqiy xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida va korrupsiyani ijtimoiy ong, axloqiy madaniyat, qadriyatlar iyerarxiyasi, ijtimoiy adolat haqidagi tasavvurlar va davlat institutlariga bo'lgan ishonchiga ta'sir ko'rsatuvchi destruktiv fenomen sifatida asoslashda, shuningdek, jamiyatning ma'naviy-axloqiy yangilanishi, ijtimoiy munosabatlar sog'lomlashuvi va davlat-jamiyat aloqalari takomillashuvi bilan bog'liq kompleks falsafiy muammo sifatida tushunishda hamda huquqiy tarbiya va huquqiy targ'ibot tizimini yanada takomillashtirishda, shuningdek ma'rifiy va madaniy tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalardan korrupsiya profilaktikasi sohasida davlat va jamiyat institutlari faoliyatini takomillashtirish, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy va targ'ibot ishlarini olib borish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashishning profilaktik yo'nalishini kuchaytirish, davlat va jamiyat munosabatlarida shaffoflikni ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish hamda korrupsiyaviy omillarning ijtimoiy ildizlarini bartaraf etishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Falsafa", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlardan o'quv-uslubiy qo'llanmalar va targ'ibot materiallarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyatda korrupsiya profilaktikasi tizimi faoliyatini falsafiy jihatdan tadqiq etish, shuningdek, zamonaviy profilaktika usullari va vositalarining muhimligini ochib berish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

korrupsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o'rganish asosida, bu illatni yengishning ijtimoiy zarurati va huquqiy asoslarini globallashtirish va raqamlashtirish talablariga javob beruvchi tizimni yaratish orqali xalqaro konvensiyalar doirasida yagona mexanizmni joriy etish lozimligiga oid ilmiy xulosa va takliflari O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi faoliyatida, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy faoliyatida va partiyaning dasturiy maqsadlarini amalga oshirish jarayonida hamda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi faoliyatida, partiyaning ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatini takomillashtirish jarayoni va dasturiy maqsadlarini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2024-yil 28-noyabrdagi 6-510-son hamda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2024-yil 4-dekabrdagi 02/02-74-son ma'lumotnomalari). Natijada, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, halollik va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlash, fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi targ'ibot-tashviqot tadbirlarining mazmun-mohiyatini boyitish va samaradorligini oshirishga hamda korrupsiyaga qarshi profilaktika faoliyatining nazariy-metodologik asoslari boyitilgan, jamiyatda halollik, ijtimoiy adolat, shaffoflik va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot hamda tarbiyaviy tadbirlar samaradorligini oshirishga

xizmat qilgan;

jamiyatda korrupsiyaga qarshi profilaktika tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, uning funksiyalarini kengaytirish, shuningdek, huquqiy vakolat va majburiyatlarni aniq belgilash va nazariy — ilmiy yondashuvlar asosida SI tizimi yordamida me'yoriy talablar hamda normativ hujjatlar tizimini va sohaga taalluqli kontentlarni yanada takomillashtirishga oid ilmiy xulosa va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatiga, yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan ma'naviy-ma'rifiy loyihalar va axborot kontentlarini takomillashtirishda hamda "Yoshlar forumi – 2024" doirasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda o'tkazilgan targ'ibot tadbirlari mazmunini boyitishda hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan tashkil etilgan "Ma'naviyat festivali", "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash", "Korrupsiya taraqqiyot kushandasi" kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmuni takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 20-yanvardagi 4-16-21-311-son hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2026-yil 13-fevraldagi 10/109-son ma'lumotnomalari). Natijada, yoshlarda halollik, fuqarolik mas'uliyati va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirilgan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ilmiy-uslubiy asoslari kuchaytirilgan, yoshlarda halollik, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va korrupsiyaga qarshi qat'iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish samaradorligi oshirilgan;

korrupsiya norasmiy ijtimoiy aloqalar darajasida yuzaga keladigan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi va uni bartaraf etishda ta'lim va madaniyat, ommaviy axborot vositalari, mafkura kabi targ'ibot tizimini dialektik aloqadorligi asosida korrupsiyani profilaktikasining ijtimoiy va aksiologik ahamiyatiga oid ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzusidagi grant loyihasi doirasida amalga oshirilgan vazifalar ijrosida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2026-yil 20-fevraldagi 01-06/46-son ma'lumotnomasi). Natijada, korrupsiya profilaktikasi sohasida davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularning ijro samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlar takomillashtirilgan, aholi o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi targ'ibot materiallari, ijtimoiy mediamahsulotlar va profilaktik axborot platformalarini yaratishning ilmiy-uslubiy asoslari boyitishga xizmat qilgan.

korrupsiyaga qarshi profilaktika tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan tamoyillarni ishlab chiqish hamda ularni amaliy faoliyatga samarali joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan profilaktik modellarni tatbiq etishning ijtimoiy va madaniy jihatdan ahamiyati hamda zarurati, jamiyatning barqarorligini mustahkamlash, davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirishda sinergetik yondashuv muhimligi bo'yicha ilgari surilgan nazariy g'oyalar va konseptual qarashlar hamda amaliy takliflar O'zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM faoliyatiga tatbiq qilingan. Korrupsiyani norasmiy ijtimoiy aloqalar ta’sirida yuzaga keluvchi salbiy ijtimoiy fenomen sifatida talqin etish, uning profilaktikasida ta’lim-tarbiya, madaniy muhit, ommaviy kommunikatsiya vositalari, mafkuraviy ta’sir va targ‘ibot tizimining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” tahririyatining “Ta’lim va taraqqiyot” hamda “Millat va ma’naviyat” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 17-dekabrda 01-02/165-son ma’lumotnomasi). Natijada, efirga tayyorlangan teledasturlar va targ‘ibot materiallarining mazmuni ilmiy-nazariy yondashuvlar bilan boyitilib, yoshlarda korrupsiyaga qarshi qat’iy fuqarolik munosabatini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash hamda keng auditoriya uchun mo‘ljallangan ma’rifiy kontentlar samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 6 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Korrupsiya tushunchasining ijtimoiy xususiyatlari, ilmiy-nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida korrupsiya ijtimoiy xususiyatlarining nazariy tahlili amalga oshirilgan va ilmiy-metodologik asoslari tahlil qilingan.

Korrupsiya bu – amaldorlarning bir martalik pora olishi yoki berishi bilan chegaralanib qolmaydigan, ayni vaqtda, uchinchi shaxslardan ularning manfaatlari uchun moddiy va boshqa imtiyozlarni muntazam ravishda olishga asoslangan tizimli hodisalar jumlasiga kirishi, korrupsiya ko‘pincha amaldor shaxs tomonidan o‘zining manfaatlarini qarindosh-urug‘lari, tanish-bilishlari, sadoqatli kishilar tomonidan

mavjud qonunlarni buzish orqali turfa xildagi jinoyatlar turkumiga kirishi bilan boshqa jinoyat turlaridan ajralib turishi falsafiy tadqiq qilingan.

Dissertant fikricha, korrupsiya – bu mamlakatlarda davlat organlari va boshqa ijtimoiy tizimlar ichida xolis va adolatli ishlashning oldini oluvchi, shaxsiy manfaatlarni umumiy manfaatlardan ustun qo‘yishdir. Shu bilan birga, bir qator tadqiqotchilar korrupsion harakatni amalga oshirish uchun ikkinchi tomon — kontragentning mavjudligi umuman kerak emas degan fikrni bildirishgan. Bu ma’noda korrupsiya harakati iloji boricha axloqiy, ijtimoiy ahamiyatga ega me’yorlarni buzish, shaxsning xatti-harakatlarini umuminsoniy me’yorlardan chetga chiqish sifatida tushuniladi⁶. Korrupsiya ko‘pincha inson tabiatidagi nufuz, qudrat va boylikka bo‘lgan haddan tashqari intilish natijasida yuzaga keladi. Bu intilishlar ko‘plab ijtimoiy tuzilmalarda xatoliklar va nosozliklar keltirib chiqaradi, chunki o‘sha tuzilmalar ongli ravishda yoki bexosdan, adolatsizlikka asoslangan qarorlarni qabul qilishadi.

Korrupsiya ijtimoiy muhitda paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi bir nechta omillar mavjud:

- davlatning yomon boshqarilishi va tartib-intizomning sustligi korrupsiyaning tarqalishiga imkon yaratadi. Agar davlat organlari ishlarining shaffofligi va hisobot berish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, odamlar o‘z manfaatlarini amalga oshirish uchun korrupsiya yo‘llarini izlashga moyil bo‘ladilar;

- jamiyatda adolat va tenglikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan institutlarning zaifligi ham korrupsiya bilan bog‘liq. Bunday holatda, ijtimoiy tuzilma o‘zining maqsadlariga erishish uchun shaxsiy manfaatlarni umumiy manfaatlardan ustun qo‘yishni targ‘ib qiladi.

Korrupsiya jamiyatda chuqur ijtimoiy ajralishlarga olib keladi. U ba’zi guruhlarining o‘z ehtiyojlarini bajarishda nisbatan imtiyozli bo‘lishiga, boshqalarning esa erkinlik va imkoniyatlardan mahrum bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu tariqa, korrupsiya adolatni buzib, jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida, odamlar orasida ishonchsizlik va norozilikni yuzaga keltiradi.

Tadqiqotda korrupsiyani bartaraf etish uchun jamiyatda ijtimoiy ongni o‘zgartirish, shuningdek, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni qayta tiklash zarurligi qayd etilgan. Bu jarayon orqali korrupsiyani yengish uchun nafaqat qonunlar kuchaytirilishi, balki har bir fuqaro o‘z mas’uliyatini chuqur anglab yetishi va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishi lozim. Shunday qilib, korrupsiya ijtimoiy tizimning izdan chiqishi va adolatning yomonlashuvi sifatida qaraladi. Korrupsiya masalasining ilmiy-metodologik asoslari, o‘z navbatida, uning tushunchalarini aniqlash va ularni tahlil qilishda qo‘llaniladigan nazariy va amaliy yondoshuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu ilmiy yo‘nalish, korrupsiyaning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy o‘lchamlarini o‘rganishga qaratilgan metodologik yondoshuvlarni taklif etadi. Shu sababli, korrupsiya tushunchasining ilmiy asoslari ko‘p qirrali va keng doiradagi yondoshuvlarni talab qiladi:

⁶ Miller S., Roberts P., Spence E. Corruption and Anti-corruption: An applied philosophical approach (Basic Ethics in Action), 2004.

birinchidan, korrupsiya tushunchasining ilmiy tahlili uning ijtimoiy mohiyatini, uning jamiyatga ta'sirini va uning oldini olish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni tushunishga qaratilgan. Bunda, sotsializm va kapitalizm kabi turli ijtimoiy tizimlarda korrupsiyaning qanday shakllanishi va taraqqiyoti o'rganilgan. Korrupsiya ijtimoiy tizimda mavjud bo'lgan ijtimoiy tengsizlik va resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy tuzilmalarning ijobiy o'zgarishlarga erishishini to'sib qo'yadi;

ikkinchidan, korrupsiya tushunchasining ilmiy-metodologik asoslari huquqiy va axloqiy tamoyillar bilan bog'liqdir. Korrupsiya, qonunbuzarlik sifatida, jamiyatda axloqiy qoidalar va normativlarning buzilishiga olib keladi. Ilmiy jihatdan, bu hodisa, odatda, tizimli ravishda o'rganiladi, bu yerda uning shaxsiy va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'siri alohida e'tiborga olinadi. Korrupsiya faqat qonunlar tomonidan tartibga solinadigan jihatlarni emas, balki jamiyatda hukmron bo'lgan axloqiy qadriyatlar va mas'uliyatni ham buzadi;

uchinchidan, metodologik jihatdan, korrupsiyani o'rganishda turli ijtimoiy va ilmiy yondoshuvlar qo'llaniladi. Bunga iqtisodiy, siyosiy, psixologik, sotsiologik va axloqiy tahlil usullari kiradi. Iqtisodiy tahlil, masalan, korrupsiyaning davlat byudjeti va iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Siyosiy tahlil esa korrupsiyaning demokratik jarayonlarga, qonun ustuvorligiga va ijtimoiy ishonchga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Psixologik tahlil esa odamlarning korrupsiyaga nisbatan munosabatlarini va bu hodisaning individning axloqiy qarorlariga ta'sirini o'rganadi. Sotsiologik yondoshuv esa jamiyatning korrupsiya bilan kurashishda qanday ijtimoiy mexanizmlar va institutlar orqali ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

Shu tarzda, korrupsiya tushunchasining ilmiy-metodologik asoslari uning ijtimoiy mohiyatini va rivojlanishining sabablarini tahlil qilish, hamda uni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan yondoshuvlarni o'rganishga asoslanadi. Bu jarayon, o'z navbatida, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatdagi korrupsiya profilaktikasi holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, korrupsiya profilaktikasi jarayonlari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, jamiyatning barcha sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy jihatdan u taraqqiyot imkoniyatlarini cheklaydi, bozor raqobatini susaytiradi, xizmat va mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi hamda resurslarning adolatsiz taqsimlanishini kuchaytiradi. Ilmiy-nazariy va metodologik nuqtayi nazardan, korrupsiya ko'pincha hokimiyat, resurslar va manfaatlar taqsimotidagi nomutanosiblikdan kelib chiqadi. Korrupsiyaning shakllanishi ijtimoiy tengsizlik, boshqaruvdagi shaffoflikning yetishmasligi, huquqiy madaniyatning pastligi, nigilizm va nazorat mexanizmlarining zaifligi bilan chambarchas bog'liq. Korrupsiyaga qarshi kurashda faqat jazolar bilan cheklanish yetarli emas; samarali profilaktika kompleks ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy islohotlarni, ilmiy asoslangan davlat siyosatini, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini hamda shaffoflik tamoyillarini o'z ichiga olishi zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashda ochiqlikni ta'minlash, hisobdorlikni kuchaytirish, raqamlashtirish tizimlarini joriy etish va aholining huquqiy ongini oshirish eng samarali vositalardir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zamonaviy jamiyatda korrupsiya profilaktikasi va uning global xususiyati”** deb nomlangan bo‘lib, zamonaviy jamiyatda korrupsiya profilaktikasining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, O‘zbekiston islohotlar tizimida korrupsiya profilaktikasining global mohiyati tahlil qilingan.

Korrupsiya, zamonaviy jamiyatlarda demokratik qadriyatlar, ijtimoiy tenglik va adolatni xavf ostiga qo‘yadigan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy resurslarni noto‘g‘ri taqsimlash, balki jamiyatdagi axloqiy qoidalar va madaniy normalarning buzilishiga olib keladi. Shunday ekan, uning oldini olish, ya’ni korrupsiya profilaktikasi, faqat qonuniy choralar bilan cheklanmay, balki jamiyatdagi madaniy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash orqali amalga oshirilishi lozim.

Dissertatsiyada korrupsiyani bartaraf etishning samarali yo‘llarini izlashda ijtimoiy-madaniy yondoshuvning ahamiyati asoslab berilgan. Jamiyatda korrupsiyani profilaktika qilish uchun avvalo, uning ijtimoiy va madaniy asoslarini tushunish zarur. Bu jarayonda insonlarning axloqiy ongini shakllantirish, shaffoflikni oshirish va ijtimoiy ishonchni tiklash kabi ijtimoiy-madaniy qadriyatlar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa:

birinchidan, korrupsiya profilaktikasi jamiyatda axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashni taqozo etadi. Korrupsiya, ko‘pincha, jamiyatdagi axloqiy me’yorlarning zaiflashishi, o‘z manfaatlarini umumiy manfaatlardan ustun qo‘yish kabi madaniy va axloqiy inqirozlarning natijasi sifatida yuzaga keladi. Shunday qilib, korrupsiyani oldini olishda jamiyatdagi axloqiy ongni rivojlantirish zarur. Insonlarning xulq-atvori, yuksak ma’naviy qadriyatlarni anglashlari, adolat, halollik, to‘g‘rilik kabi ideallarni hayotga tadbiq etishlari korrupsiyaga qarshi kurashishda asosiy vositadir;

ikkinchidan, korrupsiya profilaktikasi ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishini talab qiladi. Jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikka erishish uchun ijtimoiy tizimlarning ishonchli va shaffof ishlashi zarur. Korrupsiya, ko‘pincha, ijtimoiy tizimlarning notengligi, resurslarni nohaq taqsimlash va korrupsiyaga qarshi kurashda yetarlicha samarali institutlarning bo‘lmashligi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli, korrupsiyani bartaraf etish uchun nafaqat axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, balki ijtimoiy institutlarni mustahkamlash, davlatning boshqaruv tizimini yaxshilash, shaffoflikni ta’minlash kerak;

uchinchidan, madaniy o‘zgarishlarning ahamiyati katta. Korrupsiya ko‘pincha madaniyatdagi noxolislik, rasmiyatchilik va tashqi dunyo bilan aloqalarni to‘g‘ri o‘rnatmaslikdan kelib chiqadi. Shu bilan birga, jamiyatda shaffoflik, ma’rifat va demokratik qadriyatlarning tarqatilishi korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi. Agar jamiyatda haqiqiy va ishonchli axborot tizimi shakllantirilsa, unda korrupsiya ko‘rinishlari sezilarli darajada kamayadi. Madaniy inqirozning oldini olish uchun, jamiyatdagi turli qatlamlar o‘rtasida erkin va ochiq muloqot o‘rnatish, ilmiy va ma’rifiy dasturlarni rivojlantirish muhimdir;

Tadqiqotchi fikricha, korrupsiya profilaktikasi jarayonida jamiyatning har bir a’zosi faol ishtirok etishi zarur. Shu bilan birga, davlat va jamiyat birgalikda ishlashlari kerak, chunki korrupsiya faqat yagona qonuniy va madaniy yondoshuvlar orqali emas, balki turli sohalarda o‘zgarishlar kiritish orqali bartaraf etilishi mumkin.

Shuningdek, jamiyatda korrupsiya bilan kurashishning muvaffaqiyati faqat davlatning faoliyatiga emas, balki har bir fuqaroning madaniy ongiga va axloqiy mas'uliyatiga bog'liqdir. Zero, zamonaviy jamiyatda korrupsiya profilaktikasining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari uning ilg'or axloqiy va ma'naviy qadriyatlar asosida amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu jarayonda nafaqat qonuniy, balki madaniy, ma'rifiy va axloqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Faqatgina jamiyatdagi bunday umumiy va birlashgan yondoshuvlar orqali korrupsiya oldini olish mumkin.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning xalqaro profilaktikasi, o'z navbatida, ijtimoiy xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi. Korrupsiya masalasining ijtimoiy jihatlarini uning har bir mamlakatda mavjud bo'lgan madaniyat, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy tuzilma va o'zaro munosabatlar tizimidan ta'sirlanadi.

"Transparency International" xalqaro antikorrupsiya tashkiloti 2025-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksini (CPI) e'lon qildi. Unda O'zbekiston 2024-yilga nisbatan yuqorilab, 180 davlat ichida 121-o'rinni egalladi. O'zbekiston 100 balllik indeks bo'yicha 32 ball to'pladi. Shuningdek, O'zbekiston dunyo miqyosida ham 8 yilda muhim o'zgarishlarga erishgan davlatlar qatoridan joy oldi⁷.

Xalqaro korrupsiya profilaktikasining ijtimoiy xususiyatlari jamiyatlarning o'ziga xos madaniy qadriyatlariga asoslanadi. Har bir mamlakatda o'ziga xos ijtimoiy normalar, axloqiy me'yorlar va huquqiy tizimlar mavjud. Shu sababli, xalqaro miqyosda korrupsiyani bartaraf etish uchun har bir davlatning ijtimoiy tuzumi va madaniy qadriyatlarini hisobga olish zarur. Korrupsiyaga qarshi kurashishda, ba'zi mamlakatlarda yuqori darajadagi axloqiy standartlar, shaffoflik va hisobdorlikning kuchli bo'lishi, boshqalarda esa, bu masalalar hali rivojlanmagan yoki yetarlicha ta'minlanmagan. Bu, o'z navbatida, xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy jihatlarini har bir jamiyatga moslashtirish zarurligini taqozo etadi.

Davr talabi bilan, korrupsiyani oldini olish va qarshi kurashish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish zarurati tug'ildi. 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni⁸ qabul qilindi. Bunga qadar, yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni o'zida aks ettirgan aniq bir qonun mavjud emas edi. O'zbekistonning islohotlar tizimi, ayniqsa so'nggi yillarda, davlat boshqaruvi, huquqiy tizim va iqtisodiy siyosatda yangi yondoshuvlar ishlab chiqish orqali korrupsiya bilan kurashishda sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, korrupsiya profilaktikasining global mohiyati, mamlakatning xalqaro tizimga integratsiyasi, ijtimoiy-siyosiy madaniyatning yuksalishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil sifatida yuzaga chiqadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, O'zbekiston islohotlar tizimida korrupsiya profilaktikasining global mohiyati uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbekistonning korrupsiya profilaktikasi global

⁷ O'zbekiston Korrupsiyani qabul qilish indeksida 121-o'rinni egalladi <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/transparency-international>.

⁸ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 19.11.2021 й., 03/21/729/1064-сон. <https://lex.uz/docs/3088008>.

tizimga integratsiya qilishda va uning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Korrupsiyani kamaytirishda nodavlat-notijorat tashkilotlarining jamiyatdagi rolini mustahkamlash va rivojlantirish mexanizmlari, jumladan moddiy rag'batlantirish va cheklov tizimlarini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati bilan hokimiyat o'rtasidagi almashuvlarni keng joriy etish hamda jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda korrupsiya profilaktikasining eng muhim talabi – boshqaruv tizimida shaffoflikni ta'minlash va raqamlashtirishni kengaytirishdir. Global tajribalar shuni ko'rsatadiki, korrupsiya profilaktikasi faqat jazolash orqali emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni yaxshilash, halollik madaniyatini shakllantirish bilan muvaffaqiyatli kechadi. Aholining huquqiy ongini oshirish, manfaatlar to'qnashuvini kamaytirish va davlat xizmatchilariga munosib moddiy rag'bat yaratish profilaktikaning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ijtimoiy faoliyatdagi korrupsiya profilaktikasi muammolari va ularni hal etish usullari”** deb nomlanib, unda korrupsiya, davlat boshqaruvida korrupsion holatlarning oldini olishga qaratilgan ishlarini tashkil etishda bu salbiy illatning ta'sirini kamaytirish usullarining samaradorligini oshirish, ommaviy axborot vositalari bilan davlat tashkilotlari o'rtasidagi faoliyatda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning natijadorligiga e'tibor qaratish, jamiyatda har bir fuqaroning, ayniqsa, yoshlarning huquq sohasidagi bilimlarini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishga doir dastur va rejalaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda korrupsiya, o'z mohiyatida, davlat organlari yoki boshqa ijtimoiy institutlarda amalga oshirilgan noqonuniy va noxolis harakatlar orqali individual manfaatlarining umumiy manfaatlarga ustun kelishi natijasi ekanligi to'g'risida falsafiy o'rganishlar olib borilgan. Uning profilaktikasi esa jamiyatdagi adolat, halollik va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan harakatlar tizimi hisoblanadi. Shu sababli, korrupsiya va uning profilaktikasining ijtimoiy xususiyati nafaqat huquqiy va iqtisodiy sohalarida, balki jamiyatning axloqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun korrupsiya profilaktikasining quyidagi xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, korrupsiya jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Resurslarni nohaq taqsimlash, yirik miqdordagi mablag'larni shaxsiy manfaatlar uchun ishlatish, kichik va o'rta biznesni bo'ysundirish kabi holatlar, jamiyatda ishonchni yo'qotishga va fuqarolar o'rtasida ijtimoiy tafovutlarni yanada kuchaytirishga olib keladi. Korrupsiya, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xizmatlariga, ta'limga, tibbiyotga va boshqa ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ishonchni susaytiradi. Natijada, jamiyatning barcha qatlamlari orasida adolat va tenglik hissi kamayadi, bu esa o'z navbatida, ijtimoiy barqarorlikni xavf ostiga qo'yadi;

ikkinchidan, korrupsiya va uning profilaktikasi axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy qarashlar va u bilan bog'liq axloqiy me'yorlar muhim rol o'ynaydi. Korrupsiya ko'pincha ijtimoiy tizimda axloqiy zaifliklardan, shaxsiy manfaatlarining umumiy manfaatlarga nisbatan

ustun qo'yilishidan kelib chiqadi. Shu sababli, uning profilaktikasi jarayonida, jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar, halollik, shaffoflik va mas'uliyat hissini shakllantirish zarur. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali bo'lishi, faqat qonunlarni kuchaytirish yoki iqtisodiy choralarni ko'rish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon, shuningdek, jamiyatda adolat, to'g'rilik va insofni ustuvor qilishni targ'ib etishni taqozo etadi;

uchinchidan, korrupsiyaga qarshi profilaktika, ijtimoiy tizimlarning ishonchliligini va samaradorligini oshirishni talab etadi. Davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash, korrupsiyani oldini olishning muhim omilidir. Shunday qilib, korrupsiya profilaktikasi jarayonida davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati va boshqa ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu hamkorlik jamiyatda korrupsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlatning o'zi, o'z faoliyatida shaffoflikni ta'minlashi, korrupsiyaga qarshi qonunlarni kuchaytirishi va korrupsion amaliyotlarni aniqlashning samarali mexanizmlarini yaratishi kerak;

